

TALABALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY MA'NAVIY ME'ROSIMIZNING O'RNI

Tursinov M.P.

Nizomiy nomidagi TDPU tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda milliy ma'naviy me'rosimizning o'rni haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Shuning bilan birga ekologik muammolarni echimini topishda avvalambor insonlarda ekologik madaniyatni va ekologik ongni oshirish, insonning jamiyatdagi o'rni, vazifalari va majburiyatlarini anglatishda tarixiy manbalardan ekologik muammolarni echishda foydalanilsa maqsadga muvofiqligi aytilgan.

Kalit so'zlar: ekologik muammo, inson, ekologik madaniyat, tarixiy meros, milliy qadriyat, atrof-muhit, ekologik.

Аннотация. В статье описывается роль нашего национального духовного наследия в развитии экологической культуры у студентов. При этом говорится о целесообразности использования исторических источников для решения экологических проблем в целях поиска решения экологических проблем, повышения экологической культуры и экологического сознания людей, понимания роли, обязанностей и обязательств человека в обществе.

Ключевые слова: экологическая проблема, человек, экологическая культура, историческое наследие, национальная ценность, окружающая среда, экология.

Annotation. The article describes the role of our national spiritual heritage in the development of ecological culture among students. At the same time, it is said about the expediency of using historical sources to solve environmental problems in order to find solutions to environmental problems, increase the ecological culture and environmental consciousness of people, understand the role, duties and obligations of a person in society.

Key words: environmental problem, human, ecological culture, historical heritage, national value, environment, ecology.

Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga maxkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko'plar ushbu muammoga beparvarlik va ma'suliyatsizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar.

Ekologik muammo allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiyat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi.

XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida fan-texnika va iqtisodiyotning tezlik bilan taraqqiy etishi, inson omilining tabiatga ta'sirining kuchayishi tufayli biosfera ekotizimlarining buzilish, cho'llanish hamda sayyorada haroratning ortib borishi dunyomiyosida global ekologik muammolarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, Yer yuzida atmosferaning ifloslanishi, havo haroratining asta-sekinlik bilan ko'tarilib borishi, o'rmonlarning tezlik bilan qisqarib borayotganligi, tuproq degradatsiyasi, toza ichimlik suvi tanqisligi, ozon qatlamining emirilishi singari ekologik muammolar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [4. B. 5.].

Afsuski, bu jarayonlar O'zbekistonni ham chetlab o'tmaydi. Bu erda mutaxassislarning baholashicha, juda murakkab, aytish mumkinki, xavfli vaziyat vujudga kelmoqda. Bunday vaziyat nimalardan iborat:

- birinchidan, erning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog'liq xavf to'xtovsiz ortib bormoqda. Ayni vaqtda er ulkan boylik bo'libgina qolmay, mamlakatning kelajagini belgilab beradigan omil hamdir. Bu hol O'zbekistonda ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda, chunki erning iqtisodiy va demografik vazifasi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Ikkinchidan, O'zbekistonning ekologik xavsizligi nuqtai nazaridan qaraganda, suv zaxiralarning, shu jumladan er ust iva er osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish to'g'dirmoqda. Respublikaning daryolari, kanallari, suv omborlari va xatto er osti suvlari ham har tarafлама inson faoliyati ta'siriga uchramoqda.

Uchinchidan, Orol dengizining qurib borish xavfi g'oyat keskin muammo, aytish mumkinki,

milliy kulfat bo‘lib qoldi. Orol dengizi muammosi uzoq, o‘tmishga borib taqaladi. Lekin bu muammo so‘ngi o‘n yilliklar mobaynida xavfli darajada ortdi. Markaziy Osiyoning butun xududi bo‘ylab sug‘orish tizimlarini jadal suratda qurish ko‘plab aholi punktlariga va sanoat korxonalariga suv berish barobarida keng ko‘lamdagi fojia – Orol haloq bo‘lishining sababiga ham aylandi.

To‘rtinchidan, havo bo‘shlig‘ining ifloslanishi ham Respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdidir.

Bugungi kunda dunyoda va mamlakatimizda ro‘y berayotgan ekologik muammolarni bartaraf etishda insonlarning ekologik madaniyatini oshirish ularni tabiatga bo‘lgan munosabatini yaxshilash lozimdir.

Mamlakatimizda keyingi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratilib, aholining ekologik madaniyatini oshirish va ularda tabiatga muhabbatni shakllantirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. «Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma‘muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin» [2. B. 392.].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta‘kidlaganidek: «Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir» [1].

Qadimgi diniy kitoblarda tabiat insonning yashash makoni haqidagi fikr va mulohazalar, hattoki, majburiy-me‘yoriy ko‘rsatmalar bo‘lib kelgani haqida ma‘lumotlarni tasdiqlaydi. Yevropa, ayrim Osiyo va Shimoliy Amerika mamlakatlarida nafaqat tabiat resurslaridan tejamkor foydalanish, balkim uni asrab-avaylashga bag‘ishlangan bir qator qonunlar qabul qilingan va o‘sha qonunlar asosida ekologik chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Insoniyat o‘sha davrda postindustrial-neogen munosabat shakliga o‘tib inson va tabiat o‘rtasidagi yangi munosabat shakli, ya‘ni iqtisodiy-ekologik shakl yuzaga kelishini ta‘minladi.

«Avesto» kitobida atrof-muhitni muhofaza qilish, umuman barcha ekologik omillarni (suv, havo, olov, tuproq) asrash masalalariga alohida e‘tibor beriladi. Bu asar nafaqat jahon madaniyatiga katta qissa qo‘shgan, shu bilan birga unda atrof-muhitni muhofaza qilishga ham katta e‘tibor beriladi, ayniqsa, olovning tozaligi haqida ko‘plab ma‘lumotlar beriladi. Chunki olovning toza bo‘lmasligi tabiiy ravishda atrof-muhitga katta salbiy ta‘sir etishi haqida o‘sha davrda ko‘p fikrlar bildirilgan.

Davlatimizda ekologik muammolarni echimini topishda avvalambor insonlarda ekologik madaniyatni va ekologik ongini oshirish, insonning jamiyatdagi o‘rni, vazifalari va majburiyatlarini anglatishda diniy manbalardan ekologik muammolarni echishda foydalanilsa maqsadga muvofiq. Insonlarning ichki dunyosi, ma‘naviy qarashini tarbiyalashga qaratilgan Qur‘oni karimda insonning yaratilishi, uning jamiyatdagi o‘rni, atrof-muhit, tabiatning inson ehtiyoji va hayotidagi tutgan ahamiyati to‘g‘risida oyatlar ko‘plab keltirilgan.

Alloh taolo oyati karimada buyuriladiki: «U o‘z tomonidan (yashi o‘z xohish irodasi bilan) Sizlarga osmonlardagi va erdagi barcha narsalarni bo‘yinsundirdi» (Josiya surasi, 13-oyat). Bu erdagi «sizlarga» kalimasi bilan Odam farzandi nazarda tutilgan. Oyatning ma‘nosi bunday: «Bu olamdagi hamma narsani sizlar uchun yaratdim. Chunki sizlar ojizliklaringiz uchun dunyodagi narsalarga muxtojsizlar. Sizlar va sizlardan tashqari boshqa maxluqotlarni ham xuddi shu tarzda Men yaratdim. Sizlar koinotning hukmdori va sayyidxojarisiz. Chunki koinot sizning tasarrufingiz ostida, sizga xizmat uchun muhaye qilingan. Lekin boshqa bir jihatdan esa sizlar koinotning qullarisiz. Chunki koinotga muhtoj sizlar. Holbuki, Men hech narsaga muhtoj bo‘lmaganim bois, sizdan va sizlar uchun yaratganim barcha borliqlardan ustunman» [5. B. 51.].

Shayx Yusuf Hamadoni (fi annal-kavna musaxarnun lil-in-son) risolasida tabiat inson, ular o‘rtasidagi munosabatga to‘xtalib shunday deydi [6. B. 209-212.]: «inson koinotning xo‘jasi va egasi bo‘lib yaratilishi bilan birga koinotning, ya‘ni borliqning xizmatchisi hamdir. Koinot insonga qanchalar muhtoj bo‘lsa, inson ham koinotga shunchalar muhtojdir. Agar inson o‘ziga berilgan barcha ne‘matlardan oqilona foydalanmasa, tejab va parvarishlamasa tabiat muvozanati buziladi hamda og‘ir oqibatlariga olib keladi.

Ekologiya va inson, ularning o‘zaro munosabatlari, o‘zaro ta‘sir xususiyatlari qadimdan odamlarni qiziqtirib kelgan muammolardan biridir. Mazkur muammo ilk bor qadimgi Yunon mutafakkirlari tomonidan o‘rganilgan.

Aristotel, Gerodot, Gippokrat, Demokrit, Pifagor va boshqalar ijtimoiy va psixologik hodisalarni

tushintirib berish uchun yagona bo'lgan umumiy tamoyillarni: nazariyalarni qidirib topishga, xalqlarning turli psixologik xususiyatlariga ega bo'lishi sabablarini tushintirib berishga harakat qilgan. Ular psixologik xususiyatlarning vujudga kelishini asosan, tabiiy-geografik muhitning ta'siri bilan bog'langan. Gippokrat (eramizdan avvalgi 460-375-yillar) «Havo, suv va quruqlik» asarida odamlarning turli psixologik va jismoniy xususiyatlarini bevosita iqlim sharoiti bilan belgilanishi mumkinligini ta'kidlagan. Demak, u geografik determinizm tamoyilini ilgari surgan.

Odamlarning xarakter va temperament xususiyatlari vujudga kelishini iste'mol qilinayotgan oziq-ovqatlar bilan bog'lab tushuntirishga ham urinishlar bo'lgan. Pifagor (eramizdan avvalgi 570-500-yillar) fikriga ko'ra, hayvon go'shti va yog'ining ko'p iste'mol qilinishi qattiqqo'llik va dag'allikni vujudga keltiradi. Aksincha, mevalar va sabzavotlarning muttasil iste'mol qilinishi esa tana faoliyatini sustlashtirib, odamlar tabiatini miloyimlashtiradi.

Aristotel (eramizdan avvalgi 384-322-yillar) haddan ziyod issiq va sovuq iqlim sharoitida yashaydiganlar qattiq qo'l, shafqatsiz bo'ladi, deb hisoblagan.

Qadimgi yunonlar madaniyatida inson demiurg, yaratuvchi subyekt sifatida, qadriyat kabi e'zozlangan, xususan, qadimgi Yunon quruvchilari yo'l o'tkazayotganda tog'ga duch kelib qolsa, Sharq quruvchilari kabi tog'ni aylanib o'tmasdan uni yorib yo'l o'tkazishga harakat qilgan. Sharqda esa tabiatga nisbatan dialogik, ya'ni ekologik munosabat mavjud bo'lgan. Sharqda tabiatga tirik organizm kabi munosabatda bo'lish hukmronlik qilgan. Mazkur holat Sharqda agrar madaniyatning o'ziga xosligi bilan belgilangan bo'lishi mumkin.

Talabalarning atrof-muhitni e'zozlash ko'nikmasini rivojlantirish uchun Sharq mutafakkir olimlarining hikmatli so'zlari ibrat sifatida tanlab olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buyuk alloma Muxammad Iso al-Xorazmiy risolalaridan birida bunday deb yozadi: «Bilingki daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am-kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar daryodan mehringizni darix tutmanglar: Daryoning yoshlari deganda Muxammad Iso al-Xorazmiy nimani nazarda tutgan ekan? U daryo suvining toza saqlanishi lozimligi, uni ortiqcha isrof qilish mumkin emasligini nazarda tutgan. Vaholanki, buyuk alloma daryo bilan odamlarning bir-birini tushinishi va til topishi, o'zaro mehr-muhabbat qo'yishi lozimligini targ'ib qilgan.

Abu Rayhon Beruniy erdagi o'simlik va hayvonlarning yashashi uchun zarur imkoniyatlarni o'rgangan. Masalan, Beruniy aytadiki, erdagi o'simlik va hayvonlarning yashashi uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar cheklangandir. Lekin o'simlik va hayvonlar cheksiz ko'payishga intiladilar vash a maqsadda kurashadilar. Beruniy tabiatshunos sifatida tabiat haqida quyidagicha fikr yuritadi: «Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi» [3. B. 114.].

Demak, O'rat Osiyo allomalarining boy tarixiy-madaniy merosini o'rganish ularning asarlarida ekologiyaga oid qarashlarning ham yoritilganligidan dalolat beradi. Ularning ekologiyaga oid qarashlari mohiyatiga ko'ra tabiatning insoniyat hayotidagi o'rni, ijtimoiy munosabatlarini tashkil etishdagi ahamiyati, insonning tabiatga, shuningdek, atrof-muhitga munosabati, muhim geografik obektlar, ularning xususiyatlari, ekotizim unsurlarining o'zaro uzviy bog'liqligi, tabiat hodisalari, atrof-muhitning ular yashab o'tgan davrlardagi holati va boshqa masalalardan tarkib topgan bo'lib, asrlar davomida avlodlar uchun muhim yo'riqnoma sifatida xizmat qilib kelgan.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent.: o'zbekiston. 2017, - B. 29.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2021. –B. 392.
3. Allayarov M., Dosxodjaeva A. Yoshlarning ekologik ta'lim-tarbiya berish sohasidagi tarixiy tajribalardan foydalanishning ahamiyati // «Mu'allim ham'uzliksiz bilimlendiriv» ilmiy-uslubiy jurnal. –Nukus, 2014. –B. 114.
4. Isxakov B.B. Farg'ona vodiysi o'zbeklarining an'anaviy ekologik madaniyati (tarixiy-etnologik tadqiqot). Tarix fan.bo'y.fals.dokt. (PhD) diss. Avtorerferati. –Farg'ona, 2023. –B. 5.
5. Odilov Z. Yoshlardan ekologik madaniyatni shakllanishda diniy manbalarning o'rni // «Talaba yoshlarning milliy-ma'naviy merosdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishning ilmiy-uslubiy masalalari» mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari to'plami. –Urganch, 2009. –B. 51.